



## QATTIQ VA SUYUQ CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH VA UTILIZATSIYA QILISH BORASIDAGI AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR.

**Saidova Sohibaxon Abrorjon qizi**

*Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti  
«Komunal va mehnat gigiyenasi» kafedrasasi assistenti*

[Sokhibaxon.saidova@mail.ru](mailto:Sokhibaxon.saidova@mail.ru)

97. 5968018

**Mansurova Nilufarxon Sodiqjon qizi**

**Saidgoziyeva Asalxon Fayzullo qizi.**

*Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti  
2-kurs yo'nalishi 721-guruh talabasi*

**Annotatsiys:** Mazkur maqolada bugungi kunda dolzarb masalaga aylangan maishiy chiqindilarni qayta ishlash, utilizatsiya qilish masalalari ko'rib o'tilgan. So'nggi yillarda yurtimizda ham ko'plab chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha yangi investitsiyalar amalga oshirilmogda. Prezidentimiz tomondan ko'plab qarorlar qabul qilinmogda va amalga oshirish ishlari olib borilmogda. Rivojlangan mamlakatlar bilan o'zaro hamkorlik aloqalari o'rnatilib ishlab chiqarish sohasi bo'yicha yangi loyihalar tashkil qilinmogda va hamkorlik aloqalari o'rnatilmogda. Shu kabi qilinayotgan ishlar davlatimizni ya'nada ravnaq topishiga zamin yaratadi.

**Kalit so'zi:** zamonaviy texnologiyalar, investitsiya, qattiq chiqind, suyuq chiqindi, salomatlik, transport, statistika, utilizatsiya, ekologik muhit, korxonalar, kantener, kanalizatsiya.

**Kirish:** Bugungi kunda jahon miqiyosida maishiy chiqindilar muammosi dolzarb ekologik masalalardan biriga aylanib bormogda. Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, so'ngi yillarda maishiy va sanoat chiqindilari ko'lami yildan-yilga tobora ko'payib bormogda. Mamlakatimizda atrof-muhitni ekologik tomondan muhofaza qilish, aholi salomatligini ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, muhitni zararli va zaharli omillardan himoyalash, sanoat ishlab chiqarish korxonalarini to'g'ri yo'lga qo'yish kabi bir qancha masalalarga jiddiy e'tibor berilmogda. Shu bilan birga atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonunlarni ishlab chiqarish va hayotga tatbiq etish kabi muammolar o'z yechimini topmogda. [3]Turli xil kimyoviy moddalarning ko'p qo'llanilishi, transport vositalarining ko'pligi, sanoat korxonalaridan chiqayotgan zaharli gazlarning me'yordan oshiqcha chiqishi atmosfera havosini tarkibining buzilishiga olib keladi. Dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida qattiq maishiy chiqindilar foiz jihatdan ortib bormogda. Bu esa o'z navbatida jahonning ekologik barqarorligiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi.[7] Qattiq chiqindilarni qayta ishlash, zararsizlantirish, inson hayot faoliyatiga zaharli ta'sir etish xavfini oldini



olish va toza ekologik muhit yaratish birinchi galdagi masalalardan biri hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, jahon miqiyosi bo'yicha kunlik tashlanayotgan maishiy chiqindilarning faqat uchdan bir qismigina qayta ishlanmoqda. Shuning uchun maishiy chiqindilarni qayta ishlash va ularning utilizatsiyasi dolzarb muammo bo'lib kelmoqda. Chiqindilarni qayta ishlashning muhim bosqichlardan bir bu- chiqindilarni saralab yig'ish hisoblanadi. Bunda asosan chiqindilar turiga va holatiga qarab alohida chiqindi konteynerlariga yig'iladi. Bugungi kunda mamlakatimizda ham chiqindilarni alohida saralab yig'ish, bunga aholini jalb qilish kabi bir qancha tadbirlar amalga oshirilmoqda.

### ***Chiqindilar asosan 3xil turi ma'lum:***

1. Qattiq holatdagi chiqindilar.
2. Suyuq holatdagi chiqindilar.
3. Gaz holatdagi chiqindilar.

Chiqindilarni zararsizlantirilmasa, u atmosferani, ichimlik suvlarini, oziq-ovqat mahsulotlarni, tuproqni va korxonalarini zararlaydi. [73] Suyuq maishiy chiqindilar asosan kanalizatsiya tizimlaridan keladigan suyuqlikdir. Odatda, bu oshxonadan hammomlardan, hojatxonalardan va boshqa joylardan keladigan suyuq maishiy chiqindilar hisoblanadi. Maishiy suyuq chiqindilar inson hayoti uchun jiddiy xavf tug'dirmaydi. Lekin, ular o'z vaqtida yo'q qilinmasa, nojo'ya ta'sirlar yuzaga kelishi mumkin; turli xil kasalliklarning kelib chiqishi, har xil kasallik tarqatuvchi pashsha va chivinlarning keng tarqalishi, qo'lansa hidning paydo bo'lishini bunga misol qilib keltirish mumkin. Qattiq maishiy chiqindilarga asosan turmushimizda uchraydigan plastik bakalashkalar, har xil idishlar, qog'ozlar, qoldiq mahsulotlarni kiritishimiz mumkin. Qattiq maishiy chiqindilarni markazlashgan sanoat korxonalarida utilizatsiya qilish, ularni qayta ishlash yangi texnologiyalar asosida qayta ishlangan mahsulotlardan yangi turdagi sof, ekologik jihatdan toza bo'lgan mahsulotlar yaratish shahar va qishloq joylarda keng tarqalgan muammo hisoblanadi. Aholi turmush tarzini, to'g'ri yo'lga qo'yish, yaxshilash, sog'lom muhit yaratish kerak. Ma'lumki, insonlar chiqindilarni faqat yoqish yo'li bilangina yo'qotish mumkin deb o'ylaydilar aslida unday emas. [4] Rivojlangan davlatlarni misol qilib olsak Shvetsariya-chiqindilarni qayta ishlaydigan mamlakatlar qatorida yetakchi o'rinni egallaydi. Bu mamlakatda chiqindilarga juda kata e'tibor qaratiladi. Shvetsariyada chiqindilarni qayta ishlash muhim sanaladi va aholi ham bunga bee'tibor qolmasdan shahar va ko'chalarni toza tutishga yordam beradi. Bu mamlakatda har bir ko'cha turar joy binolari, maktab, oshxona, hiyobonlar atrofiga chiqindilarni yig'ib oluvchi vakumli kantenerlar o'rnatilgan. Bu maxsus kantrnerlar chiqindilarni yig'ib chiqindilarni qayta ishlash stansiyalariga yetkazib beradi. Stansiyalarda chiqindilar qayta ishlanib yangi xomashyo olinadi. Mamlakat aholisi ham chiqindilarni tashlashda ma'lum bir qoidaga rioya qilgan holda amalga oshiradilar ya'ni chiqindilarni tashlashdan oldin yuvib tozalab keyin chiqindi kontenerlariga soladilar.



**Xulosa qilib aytganda** bu davlat o'z salomatligiga e'tiborsiz qolmaydi va sog'lom turmush tarzini targ'ib qiladi. Yurtimizda ham atrof- muhitni muhofaza qilish sohasida ko'plab islohotlar olib borilmoqda. Tabiatni muhofaza qilish sohasida yangi qonun hujjatlari ishlab chiqilmoqda va aholi o'rtasida tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Chiqindilar bilan bog'liq muammolarni o'z vaqtida hal etish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalalar o'rganib chiqilmoqda va bunga yechim topish borasida harakatlar amalga oshirilmoqda. Chiqindilarni qayta ishlash sohasini ya'nada rivojlantirishda iqtisodiy usullardan keng miqyosda foydalanish xorijiy investitsiyalarni kiritish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish asosiy masala sanaladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hozirgi global ekologik muammolar va aholi yashaydigan hududlarni qattiq maishiy chiqindilardan halos etish choralari haqida. Бухарский государственный медицинский институт имени Абу Али Ибн Сино.[3]  
Научно-практической конференции с международным участием на тему: "Проблемы экологии и экологического образования" сборник тезисов.[11]. 2022г
2. Aholidan hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarni zararsizlantirish. INTERNATIONAL SCIENTIFIC ONLINE CONFERENCE "BELARUS" INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. .[4]
3. Гигиеническая оценка Условий труда и охраны окружающей среды на стеклоизготовительных предприятиях "New Day in Medicine Новый День в TIBBIYOTDAGI YANGI KUN №.4(32)2020ст 73.[73]
4. Гигиеническая оценка и пути оптимизации водопользования сельского и городского населения в Республике Узбекистана. New Day in Medicine Новый День в Медицине TIBBIYOTDA YANGI KUN №.2(34/2)2021ст -73.[7]